

MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI №5

2022 yil "31" yanvar

Shahrisabz tumani

Keyingi o'rinlarda "Tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi" deb ataladigan «TRUST FALCON SERVICE» MCHJ rahbari Kamolov Umid Nu'manovich orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb ataladigan Shahrisabz tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri Yusupov Baxtiyor Umarovich ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi «TRUST FALCON SERVICE» MCHJ ushbu shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan 17 (o'n etti) turdagi 41 862 570 (qirq bir million sakkiz yuz oltmish ikki ming besh yuz etmish) so'm qiymatidagi oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlarini ikkala taraf o'rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi. Shartnoma "31" yanvar 2022-yil muddatga tuzilgan.

1.2. Sotuvchi qo'yidagi mahsulotlarni sotadi va xizmatlarni bajaradi.

№	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy so'mmasi
1	Qolipli non	kg	5304	2900	15555600
2	Bulochka	kg	849	13900	11801100
3	Un 1-nav (mahalliy)	kg	802	2485	1992970
4	Kisel	kg	83	19900	1651700
5	Manniy yorma	kg	134	8900	1192600
6	Makaron	kg	24	6900	165600
7	Perlovka	kg	72	5900	424800
8	Tariq	kg	54	8400	453600
9	Grechka	kg	108	14900	1609200
10	Ovsyanka	kg	71	9900	702900
11	Nuxat	kg	22	17900	393800
12	Nuxat yorma	kg	57	6900	393300
13	Shakar	kg	205	9000	1845000
14	Povidlo	litr	19	15900	302100
15	Paxta yog'i	kg	31	16900	523900
16	Quruq sut	kg	83	18900	1568700
17	Tovuq go'sht	kg	43	29900	1285700
18	JAMI				41862570

1.3. Tovar haqi shartnoma bo'yicha har bir yetkazilgan tovar va xarajatlar summasi miqdorida to'lanadi. Tovar yetkazib berilganligi mahsulotni yetkazib berilganligi to'g'risida tasdiqlovchi hujjat bilan tasdiqlanadi.

1.4. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri bir xil kuchga ega.

2. Tovarlarini yetkazib berish tartibi

2.1. Shartnoma bo'yicha tovarlarni yetkazib berish tovarlarni sotib oluvchiga jo'natish yo'li bilan jo'natish raznaryadkasi orqali amalga oshiriladi.

2.2. Jo'natish raznaryadkasining jadvali shartnomaga ilova qilinadi.

2.3. Tovarlar faqat ta'minotchiga qarashli avtomashinada yetkazilishi kerak.

2.4. Tovar yetkazib berishning ayrim davrida uni to'liq yetkazib bermagan tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi yetkazib berilmagan tovarlar miqdorini shartnoma amal qilish muddati doirasidagi keyingi davrda yoki davrlarda to'ldirishi lozim.

2.5. Sotib oluvchi yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan tovarlarni qabul qilishni rad etishga haqli emas.

2.6. Sotib oluvchi shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta'minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim. Sotib oluvchi sotib olgan tovarlarni tovarlar yetkazib berilganidan keyin darhol ko'zdan kechirishi, agarda yetkazib berish bilan bog'liq kamchiliklar aniqlangan taqdirda, tovar yetkazib beruvchi-sotuvchini zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

3. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari

3.1. Sotuvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarining qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. Sotuvchining majburiyatlari:

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatidagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatidagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

3.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

4. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

4.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkonini berilmagan yoxud uning tovarni ko'zdan kechirish, tovarning xossalarini tekshirish yoki tovaridan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarida paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

4.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 4.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

4.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.6. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.7. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama (to'liqm yoki qisman) bosh tortishga taraflardan biri shartnomani jiddiy buzgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Shartnomani buzish quyidagi hollarda jiddiy deb topiladi:

- tegishli darajada sifatli bo'lmagan, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo'lmaydigan kamchiliklarga ega bo'lgan tovarlarni yetkazib berish;

- tovarlarni yetkazib berish muddatlarini bir necha bor buzish.

4.8. Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasini bekor qilish yoki o'zgartirishning boshqa muddati bildirish xatida nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma bir taraf boshqa tarafdin shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bir taraflama bosh tortish to'g'risida bildirish xati olgan paytdan boshlab o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

4.9 "Iste'molchi" yetkazib berilayotgan oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va sanoat maxsulotlarini shartnoma imzolanganidan so'ng oldindan 30% va maxsulotlar DMTT larga yetkazilib berilganidan so'ng, hisob-fakturasi asosida 70% to'lovlarni o'tkazib beradi.

5. Fors-major holatlar

5.1. Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmaydigan kuch ta'siri: tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6. Taraflarning rekvizitlari

"Tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi"

"Sotib oluvchi"

«TRUST FALCON SERVICE» MCHJ

Manzil: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahar, Oydinlik 10 A uy

Tel: 97 380 22 62

X/R: 20208000100257769001

Banknomi: Milliy bank Shaxrisabz filiali

MFO: 00191

INN: 302716174

Rahbar:  U.N. Kamolov

M.O:



Shahrisabz tuman maktabgacha ta'lim bo'limi

Manzil: Shaxrisabz tumani, Loliston MFY

Tel: 974017200

ShXR: 100022860102457091100251023

Banknomi: Markaziy bank Toshkent

MFO: 00014

INN: 305158978

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

G'aznachiligi

H/R: 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shahar

Boshqarmasi hisob-kitob kassa markazi

MFO: 00014

INN: 201122919

Rahbar: 

M.O:



B. Yusupov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi – shartnoma.

2. Loyi haning nomi – “Tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi” deb ataladigan «TRUST FALCON SERVICE» mas’uliyati cheklangan jamiyati va “Sotib oluvchi” deb ataladigan Shahr isabz tuman maktabgacha ta’lim bo’limi o’rtasida tuzilgan 41 862 570 (qir q bir million sakkiz yuz oltmish ikki ming besh yuz etmish) so’m miqdordagi 17 (o’n etti) turdagi oziq-ovqat, qishloq xo’jalik va sanoat mahsulotlarini yetkazib berish shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – Shahr isabz tuman maktabgacha ta’lim bo’limi, 2022-yil 21-yanvar.

4. Loyiha bo’yicha taklif va (yoki) e’tirozlar: yuq

XULOSA: Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shahr isabz tuman yuridik xizmat ko’rsatish
markazi bosh yuriskonsulti**

2022-yil 21-yanvar



F.F.Karimov



Shahrisabz tuman MTB mudiri
B U Yusupov ga


«Trust falcon servise» MCHJ sizga korxonamizda oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va sanoat maxsulotlari tayyorlanib hamda maxsulotning sifat va gigienik sertifikatlari mavjudligini ma'lum qiladi. Maxsulotlar qadoqlangan va yaroqlilik muddati, tayyorlanish sanasi ko'rsatilgan holatda muassasalar manziliga maxsus texnikalarda yetkazib berilishida kafolat beramiz.

Bo'lim tasarrufidagi DMTT lar ehtiyoji uchun kerak miqdorda xarid qilishinggizni taklif etamiz

No	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi
1	Qolipli non	kg	1	2900
2	Bulochka	kg	1	13900
3	Un 1-nav (mahalliy)	kg	1	2485
4	Kisel	kg	1	19900
5	Manniy yorma	kg	1	8900
6	Mosh	kg	1	12400
7	Vermeshel	kg	1	6900
8	Makaron	kg	1	6900
9	Perlovka	kg	1	5900
10	Tariq	kg	1	8400
11	Grechka	kg	1	14900
12	Ovsyanka	kg	1	9900
13	Nuxat	kg	1	17900
14	Loviya oq	kg	1	11900
15	Nuxat yorma	kg	1	6900
16	Shakar	kg	1	9000
17	Povidlo	litrl	1	15900
18	Paxta yog'i	kg	1	16900
19	Quruq sut	kg	1	18900
20	Tovuq go'sht	kg	1	29900
21	Tuxum	dona	1	900
22	Karam	kg	1	4900
23	Lavlagi	kg	1	2900
24	Osh qovoq	kg	1	2900
25	Tomat	kg	1	16900
26	Olma	kg	1	13900
27	Limon	kg	1	16900
28	Ko'k choy	kg	1	33900
29	Kakao	kg	1	37900
30	Osh tuzi	kg	1	1100
31	Mol go'shti	kg	1	60950
32				
33				
34				
35				
36				

«Trust falcon servise» MCHJ rahbari

U Kamolov





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"TRUST FALCON SERVICE" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"TRUST FALCON SERVICE" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

08.04.2014

11116

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

302716174

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, Shamaton, Paxtakor qishlog'i,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

